



UMUMTA'LIM MUASSASALARINI ICHKI BOSHQARISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Navro'zova Zebiniso Botirovna

Buxoro davlat Pedagogika instituti magistranti.

Annotatsiya: Maqolada umumta'lim muassasalarini ichki boshqarishning pedagogik asoslari haqida mulohazalar olib borilgan.

Kalit soʻzlar: ta'lim muassasalari, faoliyat, rahbar, menejment, odillik, tashabbus, gʻoya.

Аннотация: В статье рассматриваются педагогические аспекты инновационного управления образовательными учреждениями.

Ключевые слова: образовательное учреждение, деятельность, лидер, управление, справедливость, инициатива, идея.

Abstract: The article discusses the pedagogical aspects of innovative management of educational institutions.

Key words: educational institutions, activity, leader, management, justice, initiative, idea.

KIRISH

Bugungi keskin iqtisodiy globallashuv sharoitida oliy ta'lim tizimida tayyorlanayotgan kadrlarning tayyorgarlik sifati, ularning salohiyati va raqobatbardoshligini oshirish kabi masalalar oʻtkir muammoga aylanmoqda.

Mamlakatimiz taraqqiyotini yuksak bosqichga koʻtarish maqsadida Taraqqiyot strategiyasi qabul qilingan. Unda belgilangan vazifalarni amalga oshirish yangi



imkoniyatlar eshigini ochib bermoqda. Dunyo miqyosida raqobat keskinlashib borayotgan hozirgi murakkab davrda mamlakatimiz ilm-fan yutuqlari, yuqori texnologiyalar asosida modernizatsiya qilish va yangilash eng muhim vazifamizga aylanmoqda [1].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Yoshlarni har tomonlama bilimli hamda malakali qilib tarbiyalash, jahon taraqqiyotiga mos mutaxassis kadr sifatida tayyorlash maqsadida ta'lim tizimi izchil rivojlantirilmoqda. Fan va texnikaning jadal rivojlanishi mustaqil mamlakatimizda jamiyat qiyofasini tubdan o'zgartirib yubormoqda. Hozirgi kundagi ko'pgina kasblar faqat ma'lumotli kishilargina emas, yuksak rivojlangan, ijodiy qobiliyatga ega mustakil fikrlay oladigan kasb egalarini jalb qilishni talab qilmoqda [7].

Maqolaning nazariy va metodologik asosi bo'lib, ta'lim tizimi sifatini oshirish sohasi bo'yicha etakchi mutaxassislarning ilmiy izlanish olib borishgan. Jumladan, B.Abdullayeva, Sh.Akbarova, U.Begimqulov, M.Vahobov, U.Inoyatov, N.Isaqlulova, R.G.Isyanov, Sh.Qurbonov, A.Mag'rupov, I.Madjidov, N.Raxmonqulova, E.Seytxalilov, S.Turg'unov, YA.Ismadiyarov, B.Usmonov, M.Mirsaliev kabi olimlar boshqaruv faoliyatining kommunikativ jihatlari tahlili yuzasidan tadqiqot ishlari olib borishgan.

Ta'lim tizimi sifatini oshirishda innovatsion faoliyatni samarali qo'llashning nazariy va amaliy muammolari o'zbekistonlik olimlardan K.X.Abduraxmonov, L.V.Peregudov, M.X.Saidov, D.N.Raximova, A.N.Aripov, D.N.Raximova, N.Kasimova, B.Yu.Xodiyev va boshqalarning asarlarida tadqiq etilgan.

Shu bilan birga xorijlik olimlardan Ye.Aleeva, Yu.Tyunnikov, M.Mazichenko, T.Afanas`eva, V.Vasilyev, V.Zigert, A.Kucharov I.K.Makarova, N.P.Dronishines, A.O.Panova kabi olim va mutaxassislarning izlanishlari olib borishgan [3].

MUHOKAMA

Boshqaruv jarayoniga doir masalalar aksariyat arxaik manbalarda o'z aksini topadi. Ma'lumki, arxaik jamiyatda shaxslararo boshqaruv o'z-o'zidan yuzaga kelmagan, insonlar hali mustaqil shaxs sifatida bir-birlaridan farqlanmagan davrlar bo'lgan. Shuning uchun



ham u davrlarda inson e'tibori tabiatga qaratilgan bo'lib, ibtidoiy san'atning bosh qahramoni inson emas, balki hayvonlar hisoblangan. Sekin-astalik bilan rivojlanishni boshlagan har qanday ijtimoiy qayta yangilanishlar odamlar hayot faoliyatining yangi bosqichga ko'tarilishi bilan ro'y beradi. Bunday yangilanishlar shaxslarning jamiyat maqsadiga yo'naltirilganligi va ijtimoiy sohaning ta'siri natijasiga bog'liq bo'ladi.

XVIII asrning oxirlarida Angliyada bo'lgan sanoat inqilobi boshqaruvga bo'lgan qiziqishni yanada kuchaytiradi. Boshqaruv xodimlarini tayyorlashga alohida e'tibor berila boshlanadi.

Natijada boshqaruv to'g'risidagi fan vujudga kelgan. F.Teylor (1856-1915) menejmentni o'rganishga kirishgan ilk mutaxassislardan, uni inson samaradorligi emas, tashkil qilish faoliyati samaradorligi qiziqtirgan bo'lib, ilmiy boshqarish maktabining rivojlanishiga asos soldi va "ilmiy boshqarish" maktabi asoschisi sifatida mehnatni me'yorlash asoslarining metodologiyasini ishlab chiqdi, amaliyotga ishchilarni tanlab olish, joylashtirish va mehnatni rag'batlantirish ilmiy yondashuvlarni tatbiq qildi [2].

XIX asrning ikkinchi yarmida va XX asr chegarasida texnika va texnologiyaning takomillashuvi, ishlab chiqarishning keskin o'sishi boshqarishni murakkablashtirib yuboradi va uni faoliyatning maxsus bilimlarni talab etuvchi maxsus sohasiga aylantiradi. Ushbu muammolarni hal qilish uchun boshqaruv sohasidagi tajribani umumlashtirish, ishlab chiqarish va xodimlarni izlashga olib keladi.

Jamiyat boshqaruvi ma'rifatli odamlarni jamiyat talablari, qonun-qoidalari, odob-axloq me'yorlari asosida yashash va faoliyat ko'rsatishga, insonparvarlik, halollik, ijtimoiy adolat, umuminsoniy g'oya va tamoyillarga astoydil sodiq bo'lishga yo'naltiradi. Bugungi kunda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini barpo etish sharoitida rahbarlarni (boshqaruvchilarni) tayyorlashda menejment alohida o'rin tutadi. Menejment inglizcha so'z bo'lib, o'zbek tilida boshqaruvni tashkil etish (tashkil etish, boshqarish, boshqaruv hokimiyati), rahbarlik qilish (rejalashtirish, tartibga solish, muvofiqlashtirish, nazorat qilish) ma'nolarini anglatadi. Menejment ko'zlangan maqsadga erishish uchun faoliyatni, ya'ni



insonlar yoki ularning guruhlarini faoliyatini muvofiqlashtirish hamda boshqarish usullari, shakllari va vositalari majmui [4]. Sodda qilib aytganda, menejment umumiy holda u yoki bu faoliyat turini tashkil etishni va unga rahbarlik qilishni, ya'ni turli xil sohalarda faoliyat ko'rsatayotgan insonlarning xatti-harakatlarini, munosabatlarini muvofiqlashtirish ularning imkoniyatlari va qobiliyatlaridan to'g'ri foydalanishni tashkil etish, nazorat qilish va boshqarishni bildiradi. Darhaqiqat, odamlarning madaniy-ma'naviy saviyasi past bo'lsa, uning salbiy oqibatlari iqtisodiyotda, ijtimoiy sohada ham, oilada hamda jamoada kishilarning odob-axloqi, o'zaro munosabatlari, turmush tarzi va yurish-turishida ham seziladi [6].

Globallashuv jarayonining tezlashishi dunyoda barcha sohalarda raqobat muhitini yanada kuchaytirmoqda. Zamonaviy dunyoda intellektual va ijtimoiy kapital davlatlar taraqqiyotida tobora muhim o'rin egallamoqda. Bunday sharoitda zamonaviy sifatli bilim berishga asoslangan ta'limning mamlakatning raqobatbardoshligini ta'minlaydi. Ushbu jarayonda nostandart, kreativ va tanqidiy fikrlash, yuqori intellektual salohiyatga ega bo'lgan mutaxassislar talab ortadi. Bu esa bevosita ta'lim sifatini oshirish bilan bog'liq uzluksiz jarayondir.

Ta'lim muassalarini innovatsion boshqarishda ilmiy yondashuvlar asosi jamiyat taraqqiyoti uchun ijobiy ta'sir qilishi bilan baholanadi. Jamiyatda ijtimoiy-madaniy texnologiyalar juda moslashuvchan bo'ladi. Ular ijtimoiy-madaniy faoliyatning har qanday sharoitiga osongina moslashtirilishi mumkin. Ta'lim texnologiyalarining barcha afzalliklarini o'z ichiga olgan pedagogik texnologiyalardan farqli ravishda ijtimoiy-madaniy texnologiyalar mavjud jarayonlarning ba'zi kamchiliklarini to'g'rilaydi, chunki bo'sh vaqtga xos shakllar, usullar, shartlar, vositalar turli faoliyatni tanlash erkinligi bilan kafolatlanadi hamda shaxs manfaatlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda quriladi [5].

Mamlakatimiz yangi taraqqiyot bosqichi ta'lim muassalarini ilmiy boshqarish jarayonlarida ko'p yillar davomida to'planib qolgan muammolarni bartaraf etish uchun zarur bo'lgan usul va vositalaridan foydalanish ehtiyojini kun tartibiga qo'yimoqda. Ta'lim



muassalarini ilmiy boshqarishda ijtimoiy-madaniy texnologiyalar jamiyat boshqaruv sohasidagi muhim ilmiy-falsafiy, madaniy-ma'rifiy jihatlarni tadbiq etish bilan belgilanadi. Zero, bu bilan jamiyatni ilmiy boshqarish jarayonidagi "innovatsion usul va vositalarini" ni tadbiq qilish jamiyat va davlat uchun muhim amaliy ahamiyatga ega.

NATIJALAR

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, inson o'zining aql-zakovati bilan dastlabki mehnat qurollarini o'ylab topishdan, algoritm va nanozarrachalar, zamonaviy innovatsion kompyuter, super mikroelektron, biologik, gen muhandisligi, quyosh va boshqa yuqori texnologiyalarini kashf etishgacha bo'lgan murakkab yo'lni aynan innovatsiya – yangilikka intilish orqali bosib o'tdi.

Mamlakatimiz oliy ta'lim tizimida yuqori malakali va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash bu tizimning eng muhim vazifalaridan hisoblanadi. Mazkur vazifaning nechog'lik samarali hal etilishi mamlakatimizda amalga oshirib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar va jamiyatimiz hayotini tubdan qayta qurish borasidagi maqsadlarga erishishni ta'minlashga katta ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim tizimidagi islohatlar ta'lim tizimini boshqarish mexanizmlarini o'zgartirish, takomillashtirishni, ya'ni boshqaruvning ma'muriy buyruqbozlik metodlaridan voz kechib, ijtimoiy-iqtisodiy, zamonaviy talablarga mos keladigan, demokratik tamoyillarga asoslangan boshqaruv tizimini shakllantirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi PF-60-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/-5841063>.



2. Артеменко Б.В., Журавлев Ю.В. Комплексная оценка инновационного риска. // «Управление риском», 2003, №1.
3. Balabanov I.T. Innovatsionnyy menedjment. – Sankt-Peterburg, 2001. –S. 304.
4. Djuraev R.X., Turgunov S.T. Ta'lim menejmenti. T., 2006.
5. Дронишинес Н.П. Проблемы управления системой высшего образования в Японии // Университетское управление. - 2002. - 1. - С. 70-79.
6. Кузык Б.Н., Яковес Ю.В. Стратегия инновационного прорыва. – «Экономика», 2005.
7. Peregudov L.V., Saidov M.X. Oliy ta'lim menejmenti va iqtisodiyoti: O'quv qo'llanma. - T.: Moliya, 2002. - 184 b.